

«TASDIQLAYMAN»
Jizzax politexnika instituti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori
_____ G‘.Egamnazarov
“ _____ ” _____ 2023-yil

Jizzax politexnika instituti
Axborot-resurs markazi
2023-yil mobaynida amalga
oshirilgan ishlar yuzasidan
H I S O B O T



Jizzax-2023

Jizzax politexnika instituti axborot-resurs markazining 2023-yil yakuni bo'yicha hisoboti

Taraqqiyot sari odimlayotgan Yangi Ozbekistonda barcha ijtimoiy sohalarda bo'lgani kabi axborot-kutubxona sohasida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid qabul qilingan qonun, qaror va me'yoriy hujjatlarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslarini shakllantirish va aholiga sifatli axborot- kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois, institut axborot-resurs markazi sohaga doir qonun, qaror va me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat olib borib, yil davomida ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash yuzasidan o'z oldiga qator vazifalarni belgilab oldi. Jumladan, institut axborot-resurs markazida Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilgan **5 ta muhim tashabbus** ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasi shuningdek, **“2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi”**da belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi, ARMning **yillik faoliyat rejasi** ishlab chiqildi. Shuningdek, talabalar bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi, 1-kurs talabalari doirasida “Suhbat-sayohat” tadbirlari rejasi, yangi adabiyotlarni xarid qilish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi, fanlardan yetishmaydigan o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashni tashkil etish rejasi belgilab olindi. Faoliyatga doir belgilangan ushbu rejalarni amalga oshirishdan maqsad talaba-yoshlarga shuningdek, aholining barcha qatlamlariga axborot kutubxona xizmatlari ko'rsatish, kitobxonlarga tez va sifatli axborotlarni yetkazish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirishdan iborat bo'ldi.

I. Jizzax politexnika instituti axborot-resurs markazi faoliyati.

Axborot-resurs markazi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi to'liq bajarilib borilmoqda. ARM nizomi va ish rejasi mavjud va tasdiqlangan. ARM fondini yakka tartibdan hisobga olish uchun inventar kitobi (1-55 gacha raqamda), jamlama hisobga olish kitobi (1-6 gacha raqamda) va kundalik qaydnoma jurnali (1-3 gacha raqamda) to'g'ri yuritilib kelinmoqda. Shu va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ARMda va mavjud filiallarda yuritib kelinmoqda. ARM ish faoliyati me'yoriy talablar asosida to'g'ri tashkil etilgan.

Axborot-resurs markazi umumiy fondida jami 24686 nom va 69490 nusxada adabiyotlar mavjud. Shulardan, 18 nomda davriy nashrlar, 11 nomda jurnallar, ARMning bosma nashrlar fondi 21173 nomda 66485 nusxada. Shundan, tillar bo'yicha, o'zbek-kirill alifbosida 8447 nomda 31969 nusxada, o'zbek-lotin alifbosida

4662 nomda 18342 nusxada, kirill alifbosida 7638 nomda 13808 nusxada, xorijiy tillarda 426 nomda 2366 nusxada adabiyotlar bor. Shundan, Adabiyotlarni saqlash va xizmat ko'rsatish bo'limida 16717 nomda 53 280 nusxada, Ilmiy -uslubiy bo'limda 873 nomda 2543 nusxada, o'quv zalida 1937 nomda 4 208 nusxada, Xorijiy adabiyotlar bo'limida 123 nomda 277 nusxadagi adabiyotlar, 23398 elektron adabiyotlar, 926 nomda va 1924 nusxada badiiy adabiyotlar mavjud.

Axborot-resurs markazida yil davomida o'quv ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'limning uzviylikini ta'minlash va xodimlar kasb malakasini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

2. Axborot-resurs markazining zamonaviy axborot kutubxona tizimlari bilan (IRBIS, AKBT va boshqa dasturlar, shuningdek, RFID texnologiyalari) ta'minlanganligi, shuningdek, internet (WI-FI) tarmog'iga ulanganligi va tezligi holati.

Axborot-resurs markazi internet (Wi-Fi) tarmog'iga ulangan bo'lib, tezligi 150/1000 Mb/s tashkil etadi.

3. Foydalanuvchilarga tezkor va sifatli axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatish, talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlarning axborot-resurs markazidan foydalanish holati, kunlik tashriflar tahlili.

Foydalanuvchilarga kutubxona xodimlari tomonidan so'ralgan bosma adabiyotlar va elektron darsliklar tez va sifatli tarzda kutubxona xizmatlari ko'rsatilmoqda. ARM abonementlarga xizmat ko'rsatish bo'limida shu kungacha a'zo bo'lgan foydalanuvchilar soni jami 4120 nafarni tashkil etib, shundan 405 nafar professor-o'qituvchilar va magistlar, 3576 nafar talabalar, 139 nafar ishchi xodimlar foydalanmoqda. Kunlik tashriflar tahlil qilinganda: 89 nafar professor-o'qituvchilar, 461 nafar talabalar ARM fondidan samarali foydalanishmoqda. Institut professor-o'qituvchilari va xodimlari, shuningdek talabalarining qariyb 95% ARM ga a'zoligi ta'minlangan va o'quv jarayonlaridan tashqari bo'sh vaqtlarida ARM ga tashrifi va foydalanish holatlari kunlik tashriflar daftarida qayd etib borilmoqda.

4. Foydalanuvchilarga axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan elektron xizmat ko'rsatish, xorijiy kutubxonalar resurslari va ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, markazning yig'ma elektron katalogi va elektron axborot-kutubxona fondini shakllantirish hamda yuritish holati.

Kitobxonlarga qulay sharoit yaratish maqsadida internet telegram tarmog'ida @jizpi_arm kanali va @jizpiarm (Elektron-kutubxona, obunachilar soni 1824 nafar) guruhi tashlik etilgan. Bugungi kunga kelib ushbu tarmoqda institut hamda tayanch

OTMLar elektron kutubxona bazasidan olingan 17289 dona (PDF formatda) (shundan 13685 ta fanlarga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar, 1571 ta ilmiy adabiyotlar, 2033 ta o‘quv adabiyotlari manbaalariga olib boruvchi havolalar joylandi va bu jarayon doimiy ravishda davom ettirilib, o‘quv adabiyotlari bilan boyitib borilmoqda.

Elektron xizmat ko‘rsatish tizimi ARM xodimlari tomonidan yoki foydalanuvchining o‘zi tomonidan ham bajarilmoqda. Bunda komputerlar orqali internet tizimidan (web.p.ebscohost.com, www.proquest.com) foydalanib, xorijiy kutubxonalar bazasidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

Jizzax politexnika instituti elektron kutubxonasi <https://lib.jizpi.uz/> platformasida 24617 dona (PDF formatda) (shundan 20577 ta fanlarga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar, 70 ta ilmiy adabiyotlar, 1029 ta badiiy adabiyotlar manbalari mavjud.

Oliy ta‘lim muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi <https://unilibrary.uz/> platformasiga ARMda mavjud barcha kitoblarning elektron shaklini joylashtirib talabalar foydalanishi uchun topshirildi. Bugungi kunda <https://catalog.unicat.uz/> Respublika yig‘ma elektron katalog markazi dasturi ma‘lumotlar bazasiga joylashtirilgan elektron kataloglar soni 1754 tani tashkil qiladi va kataloglashtirish davom etmoqda. Bugungi kunda elektron katalogdagi nusxalar soni 1404 tani tashkil etadi. Bundan tashqari institut professor-o‘qituvchilari hamda turdosh OTMLar mutaxassislari tomonidan 1500 ta dan ziyod fanlar bo‘yicha yaratilgan elektron videodars mashg‘ulotlari Youtube kanaliga joylashtirilgan bo‘lib, <https://www.youtube.com/@JizPIuz/featured> xavolasi orqali talabalarning foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan.

5. 2020-2023 yillar davomida oliy ta‘lim muassasalari tomonidan fanlar kesimida xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlarni xarid qilish holati (jadval ilova qilinadi).

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining “Zamonaviy o‘quv va uslubiy adabiyotlar yaratishni tashkil etish bo‘limidan 2020-2023 yillar davomida o‘quv ilmiy va xorijiy adabiyotlar 152 nomda 418 nusxada xarid qilindi.

Quyida yillar davomida olingan xorijiy adabiyotlar:

2023 yilda – 29 nomda 132 nusxa(may oyigacha)

Fanlar	Jami	Ijtimoiy fanlar	Tabiiy fanlar	Sog‘liqni saqlash fanlari	Mutaxassislik fanlar

Xorijiy adabiyotlar bilan ishlash bo'limi	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada
	83	186	18	46	5	38	1	1	59	101

Kitob fondining sohalar bo'yicha tarkibi

Darslik		O'quv adabiyot		Ilmiy-ommobop		Ma'lumotnomalug'at		Badiiy		Jami kitob fondi	
Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada	Nomda	Nusxada
9710	22804	12418	34831	2116	10071	116	274	926	1924	24686	69490

Umumiy fondning tillar bo'yicha tarkibi

O'zbek-kirill		O'zbek-lotin		Rus		Boshqa tillar		Umumiy fond	
Nomda	Sonda	Nomda	Sonda	Nomda	Sonda	Nomda	Sonda	Nomda	Sonda
9674	32423	5846	20276	8704	14195	459	2564	24686	69490

2023-yil davomida kelgan adabiyotlar ro'yxati

Jami		Darslik		O'quv qo'llanma		Monografiya		Badiiy		Ommobop		Lug'at		Metodik qo'llanma		O'quv uslubiy majmua	
nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada
549	4462	107	960	197	1456	20	160	144	394	67	1348	8	50	4	81	2	13

Tillar kesimida								Jami	
lotin		kril		chet		rus		nomda	nusxada
nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada	nomda	nusxada		
425	3043	35	666	46	319	43	434	549	4462

6. Axborot-resurs markazi moddiy-texnika bazasining holati.

ARM va filiallarida 5 ta 128 o‘rinli o‘quv zali, 5 ta fondlarni saqlash xonasi, 4 ta 54 o‘rinli kompyuter zali mavjud, ARM o‘quv zallari stol-stul, kitob va katalog javonlari bilan ta‘minlangan. ARMning Axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko‘rsatish va adabiyotlarni saqlash bo‘limi, axborot-kutubxona resurslarini butlash, kataloglashtirish va tizimlashtirish bo‘limi hamda ilmiy-uslubiy va axborot ma‘lumot bo‘limlari ya‘ni, to‘rtta bo‘lim ikkita xonada joylashgan.

Hozirgi vaqtda ARM o‘z moddiy-texnika bazasiga ega. 2023 o‘quv yilida moddiy-texnika bazasi uchun zamonaviy texnika vositalari ya‘ni, 10 ta kompyuter xarid qilindi va 2024-o‘quv yili uchun zarur jihozlar xaridi rejalashtirilgan.

Institut binolari tarkibida ham ARM filiallari mavjud bo‘lib, **3-bino “Sanoat texnologiyalari”** fakultetidagi ARM filialining umumiy fondi 834 nomda 6127 nusxadagi adabiyotlardan iborat, shundan, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar 125 nomda 1061 nusxada, mutaxassislikka oid adabiyotlar 576 nomda 4845 nusxada, badiiy adabiyotlar 69 nomda 221 nusxada, o‘quv zali 60 o‘rinli. **Sirtqi bo‘lim** binosidagi ARM filialining umumiy fondi 239 nomda 490 nusxadagi adabiyotlardan iborat bo‘lib, shundan, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar 36 nomda 63 nusxada, mutaxassislikka oid adabiyotlar 189 nomda 400 nusxada, badiiy adabiyotlar 14 nomda 27 nusxada, o‘quv zali 30 o‘rinli. TTJ 2 ta binoda, 1-bino institut hududida joylashgan bo‘lib, ARM fondi 624 nomda 1253 nusxani tashkil etadi. Shundan, mutaxassislikka oid adabiyotlar 619 nusxa, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar 455 nusxa, badiiy adabiyotlar 204 nusxada. 2-bino shaharning “Ittifoq” mahallasida joylashgan bo‘lib, kutubxona fondi 238 nusxani tashkil etadi. Shundan, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar 58 nusxa, mutaxassislikka oid adabiyotlar 157 nusxa, badiiy adabiyotlar 23 nusxada. Ushbu filiallardagi o‘quv zallari stol-stul, kitob javonlari, moddiy-texnika bazasi bilan ta‘minlangan, ammo yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklar bor.

O‘quv binolaridagi kafedralar kirish joylariga 21 ta QR-kodli innovatsion kutubxona doskalari tashkil etilgan. Ushbu doskalarining har biriga mutaxassislikka oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, adabiyotlar 45-55 tadan, shundan, 911 ta o‘quv adabiyotlar, 120 ta video darslar, 10 ta audio kitoblar jami 1041 ta joylashtirilgan.

Institutda Axborot resurs markazida ma‘naviy –tarbiyaviy ishlar hamda reja asosida olib borildi. Shu bilan bir vaqtda o‘tkazilgan tadbirlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “JizPI onliyn” rasmiy kanaliga joylashtirib boriladi.

8-noyabr kuni Jizzax politexnika institutining faollar zalida Arxitektura va qurilish” fakulteti, “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida va Axborot resurs markazi xamkoligida O‘zbekiston xalq shoir Omon Matjon tavalludining 80 yilligiga

bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirni "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti D. Soatova O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning hayot yo'li, sermahsul ijodi, kitobxonlar o'rtasida qanchalik o'rni beqiyosligini ta'kidladi va shoir ijodidan namunalarni keltirib o'tdi.

Fakultetning iqtidorli talabalari 231-23 guruh talabasi Satumayeva, 231-23 guruh talabasi Ergashev J, 212-20 guruh talabasi Baxromova B.lar tomonidan shoirning she'rlaridan parchalar o'qishdi. Axborot-resurs markazi bo'lim xodimlari O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon tavalludining 80 yilligiga bag'ishlab "Kitob va kitobxonlik inson ma'naviyat ko'zgisini" kitob ko'rgazmalari bilan ishtirok etishdi. Ko'rgazmada shoir Omon Matjonning she'riy kitoblari namoyish etildi.

Tadbirda ARM xodimlari tomonidan 30 dan ziyod kitoblarni talaba yoshlar e'tiboriga taqdim etildi. Tadbirda 200 dan ortiq professor-o'qituvchilar, tyutorlar hamda talaba-yoshlar ishtirok etdilar.

4-dekabr kuni institutining faollar zalida Arxitekura va qurilish fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida hamda Axborot-resurs markazi hamkorligida "Konstitutsiya - farovon hayotimiz poydevori" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkillashtirildi. Tadbirni "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida mudirasi Xamdamova Hanifa kirish so'zi bilan ochib berdi. Arxitekura va qurilish fakulteti dekani dotsent A. Berdikulov so'zga chiqdi. Tadbirda Axborot-resurs markazi xodimlari "Til - millat ko'zgisini" shiori ostida kitoblar ko'rganmasi bilan ishtirok etishdi. "Konstitutsiya - farovon hayotimiz poydevori" mavzusida "Yuridik texnikumi kafedra" mudiri X. Muxammadiyev ma'ruza qildi. Axborot-resurs markazi xodimlari "Konstitutsiya-baxtimiz qomusi" shiori ostida kitoblar ko'rganmasi bilan ishtirok etishdi. Tadbirda 200 dan ortiq professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etishdi.



ARMda yil davomida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar

№	Tadbirlar nomi	O'tkazilgan vaqti	O'tkazilgan joyi
1	Vatanga sadoqat-tng oliy ne'mat	11.01.2023	Axborot-resurs markazi
2	Zukko kitobxon	21.01.2023	Instituti talabalar turar joyida
3	Ajdodlar ruhi mangu barhayot	08.02.2023	Madaniyat saroyi
4	Biz guyohvandlikka qarshimiz	10.02.2023	Madaniyat saroyi
5	Bobur shoh va shoir	14.02.2023	Madaniyat saroyi
6	Ziyo ulashish kitobxonlikdan boshlanadi	18.02.2023	Axbopot-resurs markazi
7	Sadoqat saroyining mangu malikasi yoxud Zulfiyaxonim	27.02.2023	Madaniyat saroyi
8	Kitob va kitobxonlik-inson ma'naviyati ko'zgusi	03.03.2023	Axborot-resurs markazi
9	Kitobxonlik haftaligi: Kitob-hayotni yaratuvchi murabbiydir	10-15.04.2023	Madaniyat saroyi
10	Prezident asarlarini o'rganamiz	10-11.04.2023	Ma'ruza zalida
11	Kitob-hayotni o'rgatuvchi murrabiy	10.04.2023	3-bino Faollar zali
12	Amir Temur –Sohibqiron buyuk sarkarda, davlat arbobi	10.04.2023	Ma'ruza zalida
13	Kitob bu-qalblarni yoritgan chroq	12.04.2023	Institut fayesida
14	O'tkir Hoshimovning "Daftar xoshiyasidagi bitiklar"	13.04. 2023	Axbopot-resurs markazi
15	Biz buyuk yurt farzandlarimiz	17.04.2023	Institut texnopark
16	Muhammad Yusuf tavalludi	28.04.2023	Madaniyat saroyi
17	O'tkir Hoshimov	29.04. 2023	Akademik litseyi
18	Ajdodlar matonati va jasorati avlodlar uchun na'munadir	10.05.2023	Axborot-resurs markazi
19	Yangi O'zbekiston va inson huquqlari	29.05.2023	Konferensiya zal
20	Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Bahodir Qobil bilan uchrashuv	29.05..2023	Konferensiya zal
21	Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun	04.09.2023	Institut texnopark
22	1-kurs talabalar uchun ochiq eshiklar kuni	05.09.- 07.09.2023	Axborot-resurs markazi
23	Turkiy adabiyot durdonalari	23.09.2023	Axborot-resurs markazi
24	E'zozdasiz mudom ustozlar	30.09.2023	Institut texnopark
25	Sharof Rashidov-siyosatchi va diplomat	14.10.2023	Madaniyat saroyi

26	Davlat tili-milliy ma'naviyatimiz timsoli	20.10.2023	Madaniyat saroyi
27	Zakovat "O'zbek tili-milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli"	21.10.2023	JizPI qoshidagi akademik litseyi
28	Omon Matjon tavalludining 80 yilligi	8.11.2023	Konferensiya zal
29	Konstitutsiya –farovon hayotimiz poydevori	04-07.12.2023	Konferensiya zal
30	Davlatimiz madhiyasining 31 –yilligi	11.12.2023	Konferensiya zal

Yil davomida tashkil etilgan ko'rgazmalar

1	Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili
2	"Kitob –millatning bebaho ma'naviy va madaniy merosi"
3	"Ajdodlar matonati va jasorati avlodlar uchun namunadir"
4	Abadiiy barhayot buyuk siymo
5	"G'azal mulking sultoni"
6	"Bobur –shoh va shoir"
7	Amir Temur-buyuk davlat arbobi
8	"Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" ,
9	"Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!"
10	"Jannatim, iymonim, borimsan vatan"
11	"Yangi adabiyotlar sizlar uchun"
12	"Konstitutsiya-baxtimiz qomusi"

ARM direktori

M. Ropiyeva